



**"Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari va
tarjima muammolari"**

D.D.Togʻaymurodov: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va
adabiyoti yuqori kurslar kafedrasini mudiri.

M.K.Xaitmamatova: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya
fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri — zoonim (hayvon nomlari) komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Tadqiqotda ingliz va oʻzbek tillaridagi "olamning lisoniy manzarasi"dagi tafovutlar, xususan, boyqush, it, choʻchqa kabi hayvon obrazlarining milliy-madaniy ramziy maʼnolari va ularni tarjima qilishdagi muammolar (lakunalar, ekvivalentlik) qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik namunasi — Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari paremiologik jihatdan tadqiq etilgan. Asardagi hayvonlar ishtirokidagi maqollarning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, majoziy maʼnosi va satirik funksiyasi ochib berilgan. Muallif zoonim maqollarni nafaqat xalq donoligi, balki inson xarakteri va jamiyat illatlarini fosh etuvchi "madaniy kod" sifatida baholagan.

Kalit soʻzlar: Zoonim, paremiologiya, lingvokulturologiya, olamning lisoniy manzarasi, tarjima strategiyalari, «Zarbulmasal», allegoriya, satira, zoometafora, madaniy lakuna.

Abstract: This article is devoted to the study of linguoculturological features of proverbs with zoonym (animal name) components, which is a topical issue in linguistics and translation studies. The research provides a comparative analysis of the differences in the "linguistic picture of the world" in English and Uzbek languages, specifically focusing on the national-cultural symbolic meanings of animal images such as the owl, dog, and pig, as well as the problems arising in their translation (lacunas, equivalence). Furthermore, the article investigates "Zarbulmasal" by Muhammad Sharif Gulkhani, a masterpiece of classic Uzbek literature, from a paremiological perspective. The socio-political essence, metaphorical meaning, and satirical function of proverbs involving





animals in the work are revealed. The author evaluates zoonymic proverbs not only as folk wisdom but also as a "cultural code" exposing human character and social vices.

Keywords: Zoonym, paremiology, linguoculturology, linguistic picture of the world, translation strategies, "Zarbulmasal", allegory, satire, zoometaphor, cultural lacuna.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению лингвокультурологических особенностей пословиц с компонентом-зоонимом (названия животных), что является одной из актуальных проблем языкознания и переводоведения. В исследовании проводится сопоставительный анализ различий в «языковой картине мира» в английском и узбекском языках, в частности, рассматриваются национально-культурные символические значения образов таких животных, как сова, собака, свинья, а также проблемы их перевода (лакуны, эквивалентность). Кроме того, в статье с паремиологической точки зрения исследуется произведение классика узбекской литературы Мухаммада Шарифа Гулхани «Зарбулмосол». Раскрываются социально-политическая сущность, метафорическое значение и сатирическая функция пословиц с участием животных. Автор оценивает зоонимные пословицы не только как народную мудрость, но и как «культурный код», разоблачающий человеческий характер и общественные пороки.

Ключевые слова: Зооним, паремиология, лингвокультурология, языковая картина мира, стратегии перевода, «Зарбулмосол», аллегория, сатира, зоометафора, культурная лакуна.

KIRISH: Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqollar xalq donishmandligining ifodasi sifatida til va madaniyatning o'zaro ta'sirini eng yorqin aks ettiruvchi til birliklaridan biridir. Ular orqali xalqning turmush tarzi, qadriyatlar, dunyoqarashi va madaniy xususiyatlarini anglash mumkin. Hayvon nomlari qatnashgan maqollarni (animal proverbs) bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish — tarjimashunoslikning eng murakkab va qiziqarli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy muammo shundaki, hayvonlar turli xalqlarning madaniyatida turlicha ramziy ma'nolarni anglatadi. Hayvon nomlari qatnashgan maqollarni (zoonimik paremiyalarni) o'rganish va tarjima qilish





masalalari o'zbek tarjimashunosligi va tilshunosligida fundamental mavzulardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar qatlami zoonimlar deb ataladi. Bu mavzu leksikologiya, onomastika (atoqli otlarni o'rganish) va lingvokulturologiya fanlarining kesishgan nuqtasidir. Termin: "Zoonim" so'zi yunoncha "zoon" – hayvon va "onyma" – nom so'zlaridan tashkil topgan. Zoonimlar – tildagi hayvonlar olamini ifodalovchi barcha so'zlar yig'indisidir. Ularni tilshunos olim Mamatov A.E. 2 guruhga bo'ladi:

1. Appelyativ zoonimlar (Tur nomlari):
2. Hayvonlarning umumiy nomi (masalan: ot, it, bo'ri, burgut).
3. Xususiy zoonimlar (Laqablar) ya'ni hayvonlarga qo'yilgan atoqli otlar (masalan: Olapar, Boychibor, Rex, Mosh).

Onomastikada bu yo'nalish zoonimika deb ataladi.¹ Maqollar (paremiyalar) xalqning uzoq yillik tajribasi, dunyoqarashi va madaniyatini o'zida aks ettiruvchi ixcham lisoniy birliklardir. Tarjimashunoslikda eng murakkab vazifalardan biri bu – zoonimlar (hayvon nomlari) ishtirok etgan maqollarni bir tildan ikkinchi tilga, xususan, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishdir. Tilshunoslikda "Olamning lisoniy manzarasi" (Linguistic Picture of the World) tushunchasi mavjud bo'lib, u har bir xalq olamni o'z ona tili orqali o'ziga xos tarzda idrok etishini anglatadi. Bu manzarada hayvonlar dunyosi (fauna) alohida o'rin tutadi. Insoniyat qadimdan hayvonlar bilan yonma-yon yashagani bois, inson xarakteri, jamiyatdagi munosabatlar va hayotiy haqiqatlar ko'pincha hayvonlar obrazi orqali ifodalanadi. Biroq, tarjimonlar oldida turgan asosiy muammo shundaki, til belgilari (so'zlar) tarjima qilinadi, ammo madaniy kodlar har doim ham mos kelavermaydi. Ingliz tilidagi "zoonim komponentli frazeologizmlar"ni o'zbek tiliga o'girishda shunchaki lug'aviy ma'noni berish yetarli emas, chunki maqolning tag zamirida bir necha asrlik tarixiy-madaniy qatlam yotadi. Har bir xalqning "Olamning lisoniy manzarasi" (Linguistic picture of the world) mavjud bo'lib, unda hayvonlarga yuklangan ramziy ma'nolar farq qiladi.

Ingliz tilidagi hayvon nomlari qatnashgan maqollarni tarjima qilishda tarjimon quyidagi strategiyalardan birini tanlashi kerak:

¹ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. – Toshkent: Fan, 2019





1. Ekvivalent ya'ni muqobil toppish. Bunda xuddi shu hayvon ishtirok etgan o'zbek maqolini qo'llaniladi.
2. Analog-o'xshash toppish. Bu usulda boshqa hayvon nomi bilan aytiladigan, lekin ma'nosi bir xil o'zbek maqolini qo'llash.
3. Tasviriy tarjima ya'ni maqolning majoziy ma'nosini oddiy so'zlar bilan tushuntirib berish (agar o'zbek tilida mos maqol bo'lmasa).²

Metodlar: zoonimlarni tarjima qilishda juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Sababi noto'g'ri usulda tarjima qilinsa ma'nosi o'zgarishi mumkin. Zoonim maqollarni tarjima qilishda asosan quyidagi 4 ta metoddan foydalaniladi:

1. Mutlaq ekvivalent ya'ni to'liq moslik metodi.

Bu usulda asl nusxadagi hayvon nomi (zoonim) ham, maqolning ma'nosi ham, grammatik tuzilishi ham tarjima tilida aynan saqlanib qoladi. Bu ko'pincha umuminsoniy qadriyatlar yoki xalqaro miqyosda tarqalgan iboralar uchun xosdir.

2. Analog ya'ni muqobil variant metodi.

Bu eng keng tarqalgan usuldir. Bunda maqolning umumiy ko'chma ma'nosi saqlanadi, lekin undagi zoonim (hayvon nomi) boshqasiga almashtiriladi yoki umuman boshqa obraz orqali beriladi. Bunga sabab — madaniy tafovutlardir.

3. So'zma-so'z tarjima qilish (Kalkalashtirish).

Agar maqoldagi obraz tarjima tilida mavjud bo'lmasa-yu, lekin kitobxon uchun tushunarli bo'lsa yoki muallifning o'ziga xos uslubini saqlab qolish kerak bo'lsa, so'zma-so'z tarjima qilinadi.


4. Tasviriy ya'ni izohli tarjima metodi.

Agar maqolning ekvivalenti ham, analogi ham topilmasa va undagi hayvon obrazi tarjima tili madaniyatiga yot bo'lsa, maqolning faqat ma'nosi tushuntiriladi. Bunda hayvon nomi tushib qolishi mumkin. Zoonim maqollarni tarjima qilishda eng yaxshi yondashuv — madaniy moslashuv (domestikatsiya) hisoblanadi. Ya'ni, tarjimon so'zlarni emas, balki "obrazlarni" tarjima qilishi kerak.³

Natija: Bir tilda ijobiy bo'yoqqa ega hayvon, ikkinchi tilda salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tilida: "Owl" (Boyqush)– donolik va ilm ramzi. Masalan: "Wise

² K. Musayev. "Tarjima nazariyasi asoslari".

³ G'aybullat Salomov. "Tarjima nazariyasi asoslari" va "Til va tarjima"





as an owl" (Boyqushdek dono). O'zbek tilida boyqush – shumlik, xarobalik va o'lim darakchisi. O'zbek tilshunosi M. Imomnazarovo'z tadqiqotlarida sharq xalqlari folklorida boyqush "vayrona" ramzi ekanligini, G'arbda esa Afinadagi Afina Pallada (hikmat ma'budasi) timsoli tufayli donolik belgisi ekanligini ta'kidlaydi.⁴ Bu muammoni hal qilish uchun tarjimon "He is an old owl" iborasini "U qari boyqush" deb tarjima qilsa, o'zbek kitobxonida "dono qariya" emas, "badbaxt yoki shum qariya" tushunchasi uyg'onadi. Shu bois "U ko'pni ko'rgan dono" deb o'g'irish to'g'ri bo'ladi.

1. Bundan tashqari It (Dog)- obrazi. Sababi ingliz tili madaniyatida It – vafodorlik, do'stlik va oila a'zosi ramzi. Ko'plab maqollarda ijobiy ma'noda keladi. O'zbek madaniyatida esa it vafodor hisoblansa-da, tilshunoslikda u ko'pincha haqorat, pastkashlik va nopoklik ramzi sifatida keladi. Misol uchun Ingliz tilidagi "Love me, love my dog" (Meni sevsang, itimni ham sev) maqolini so'zma-so'z tarjima qilish o'zbek kitobxoniga g'alati tuyuladi va hatto haqoratdek yangrashni mumkin. Bu o'rinda adekvat (mos) tarjima sifatida "Yaxshi ko'rgan kishining aybi ko'rinmas" yoki "Suyganingning qilg'i senga yoqar" kabi insoniy munosabatlarni ifodalovchi muqobillar tanlanadi. A.E. Mamatov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, o'zbek frazeologiyasida "it" komponenti qatnashgan iboralarning 80 foizdan ortig'i salbiy bo'yoqqa ega ("It yotish, mirza turish", "It egasi bilan tanimas"), ingliz tilida esa bu ko'rsatkich ancha past.⁵

2. Diniy va Etnografik to'siqlar ya'ni Lakuna kabi muammolar ham mavjud.

Islom madaniyati va G'arb nasroniylik madaniyati o'rtasidagi farqlar hayvon obrazlarida yaqqol ko'rinadi. Eng katta tafovut bo'ladigan so'z- cho'chqa (Pig/Swine) obrazi. Ingliz tilida cho'chqa ba'zan omad, to'kinlik yoki shunchaki ifloslik ramzi bo'lishi mumkin. Masalan: "Pigs might fly" (Cho'chqalar uchganda – ya'ni, hech qachon ma'nosida. O'zbek va boshqa ko'plab islomiy davlatlarda cho'chqa harom qilingan hayvon bo'lgani uchun, xalq og'zaki ijodida u bilan bog'liq ijobiy yoki neytral maqollar deyarli uchramaydi. Tarjimashunos olim G'aybulla Salomov "Tarjima

⁴Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari.

⁵ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.





nazariyasi asoslari" kitobida milliy realiyalarni tarjima qilishda "moslashtirish" (adaptatsiya) usulini qo'llash zarurligini aytadi.⁶

Bu muammoga yechim Inglizcha "To buy a pig in a poke" (Qopdagi cho'chqani sotib olmoq) maqolini o'zbek tiliga "Qopdagi mushukni sotib olmoq" (rus tili ta'sirida) yoki "Ko'r-ko'rona savdo qilmoq" deb o'girish maqsadga muvofiq, asl maqolda esa bu nazarda tutilmagan.

3. Funksional ekvivalentlik va Obraz almashinuvi kabi muammolar mavjud.

Tarjima jarayonida so'z emas, "vaziyat" (situatsiya) tarjima qilinishi kerak. Bunda obrazlar (hayvonlar) o'zgaradi. Bu degani metaforik obrazning mos kelmasligi mumkin. Misol uchun inglizcha "Curiosity killed the cat" (Qiziqqonlik mushukni o'ldirdi). Shu o'zbekchada esa O'zbeklarda qiziqqonlik tufayli o'lgan mushuk haqida maqol yo'q. Ilmiy tomomlana yondoshadigan bo'lsak tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"ga ko'ra, bunday holatda ma'no ko'chiriladi. Hamda tarjima qilinganda : "Ko'p bilgan – tez qarir" yoki "Burningni suqmagan joyga..." (xalqona variant) kabi muqobillar tanlanadi. Bu yerda "mushuk" obrazi butunlay yo'qoladi.

4. Geografik va madaniy "lakuna"lar (bo'shliqlar) kabi muammolar.

Ingliz xalqi dengiz bo'yida yashagani sababli, dengiz hayvonlari bilan bog'liq maqollar ko'p. O'zbeklarda esa chorvachilik va dasht hayvonlari ustunlik qiladi.

Misol uchun, "There are plenty of other fish in the sea" (Dengizda boshqa baliqlar ko'p). Bu maqol odatda ajrashish yoki muvaffaqiyatsiz munosabatlardan keyin "hali imkoniyatlar ko'p" ma'nosida aytiladi. Sababi, O'zbekistonda dengiz yo'q, shuning uchun "baliq" metaforasi hissiy ta'sir kuchiga ega emas. Bunga yechim sifatida ekvivalentini o'zbek tilidagi "Olamda gap ko'p" yoki yigitlarga qarata "Qiz bor joyda noz bor", "Bir yigitga yetti qiz" kabi milliy koloriti bor iboralar ishlatiladi.

Hayvon nomlari (zoonimlar) ishtirok etgan maqollarni tarjima qilish – bu nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya (til va madaniyatni o'rganuvchi fan) muammosidir. Ushbu muammolarni hal qilishda tarjimonlar "Adekvat tarjima" nazariyasiga tayanadilar. Bunda shakl (hayvon nomi) qurbon qilinib, mazmun (g'oya)

⁶ G'aybullay Salomov. "Tarjima nazariyasi asoslari" va "Til va tarjima"





saqlab qolinadi.⁷ Tarjima – bu tillar jangi emas, madaniyatlar muloqotidir. Zoonimlarni tarjima qilishda "hayvon"ni emas, uning ortidagi "g'oya"ni tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Zoonimlar nutqda nafaqat hayvonni, balki inson xarakterini tasvirlash uchun metafora sifatida keng qo'llaniladi. Bu ya'ni harakterni tasvirlash tilshunoslikda "Zoometafora" deb yuritiladi.

Ijobiy baho beruvchi zoonimlar va ularning qaysi harakterni ifodalashi :

1. Sher, Arslon– mardlik, jasorat.
2. Lochin, Burgut– o'tkir ko'zli, chaqqonlik.
3. Bulbul– notiq, chiroyli ovoz egasi.
4. Kabutar– tinchlik, beozorlik.

Salbiy baho beruvchi zoonimlar va ular qanday harakterlarni ifodalashi:

1. Eshak– qaysarlik yoki aqlsizlik.
2. Tulki– ayyorlik, makkorlik
3. To'ng'iz (Cho'chqa)– ochko'zlik, nopoklik, yomon xulq.
4. Ilon– zaharli til, xavfli dushman kabi harakterlarni ifodalab keladi va maqoldagi ma'nosi shu tarzda ifodalanadi.


Bir zoonim turli madaniyatlarda turlicha baholanadi. Masalan, Fil (Elephant) hindlarda donolik va kuch ramzi, o'zbeklarda esa qo'pol va beso'naqaylik ("Filning qulog'ida yotibdi") ramzidir.

Muhokama: Bu ma'lumotlarimizga dalil sifatida "Zarbulmasal" asarini oladigan bo'lsak, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari— o'zbek mumtoz adabiyotining noyob namunasi bo'lib, u XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida yaratilgan. Bu asar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy tuzumini o'tkir hajv (satira) ostiga olgan va chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan majoziy (allegorik) asardir.⁸ Hamda ushbu asarda masal va maqollarda ko'plab hayvon nomlaridan foydalanilgan. Misol uchun:

1. «Tug'ilmagan buzoqqa temir qoziq qoqma».(Hali amalga oshmagan ish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rma).

⁷ Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.– Toshkent: O'qituvchi, 1978.

⁸ XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Muhammad Sharif Gulxaniy tomonidan turkiy tilda yozilgan.





2. «It hurar — karvon o'tar».(Nodonlarning gapiga e'tibor bermay, o'z maqsad sari borish kerak).

3. «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi».(Bu maqol asar kontekstida amaldorlar bir-birining aybini yopishi, o'zaro til biriktirishi ma'nosida keladi).

4. «Ot aylanib qozig'ini topar». (Noto'g'ri yo'lda yurgan odam bir kun to'g'ri yo'lga qaytadi).

5. «Eshak Makkaga borgani bilan hoji bo'lmas».(Insonning asli yomon bo'lsa, joy o'zgartirish bilan yaxshi bo'lib qolmaydi).

6. «Har qush o'z uyasiga qarab uchadi».(Vatanparvarlik va o'zligiga sodiqlik).

Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida keltirilgan bu maqollar shunchaki xalq donoligi namunasi bo'libgina qolmay, asar qahramonlari (qushlar)ning xarakteri, dunyoqarashi va o'sha davr ijtimoiy muhitini ochib berishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.hamda ma'nolariga qarab gaplarda qo'llaniladi. Misol uchun:

1. «Tug'ilmagan buzoqqa temir qoziq qoqma»

Majoziy ma'nosi hali natijasi aniq bo'lmagan, endigina rejalashtirilayotgan ish uchun ortiqcha tayyorgarlik ko'rish yoki maqtanchoqlik qilish nodonlik kabi ma'nolarda qo'llanilsa.

Asardagi isboti tahlilida esa yapaloqqush o'z o'g'lini uylantirish harakatiga tushganda, hali kelin tomonning roziligi olinmay turib, katta to'y rejalari va kelajakdagi qudachilikdan keladigan foydalar haqida xayol suradi.

Hayotiy dalil sifatida esa bu maqol "xomxayollik"ni fosh etadi. Masalan, inson hali ishga kirmasdan turib, oladigan maoshi-yu, sotib oladigan mashinasi haqida gapirsa, kulgiga qoladi. Asar buni Yapaloqqushning kalabinligi orqali isbotlaydi.

2. «It hurar — karvon o'tar»

Majoziy ma'noda qo'llanilsa atrofdagi mayda gap-so'zlar, g'iybatlar yoki to'siqlar belgilangan buyuk maqsadga erishishga to'sqinlik qila olmaydi tarzida qo'llaniladi.

Asardagi isboti tahlilida esa bu maqol asarda ikki xil ma'noda keladi.

Ijobiy ma'noda bu aqlli kishilar nodonlarning safsatasiga parvo qilmay o'z yo'lida davom etishi kerakligi.

Salbiy (Satirik)ma'noda bo'lsa asardagi amaldorlar (qushlar) xalqning nola-faryodiga (buni ular "it hurishi" deb biladilar) e'tibor bermay, o'zlarining zulm





"karvoni"ni davom ettiraveradilar. Gulxaniy shu orqali hukmdorlarning xalqqa bepisandligini fosh etadi.

3. «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi»

Majoziy ma'noda qo'llansa bir toifa yoki guruhga mansub yomon niyatli kishilar (o'g'rilar, poraxo'rlar, zolim amaldorlar) bir-birlarining aybini ochmaydilar, aksincha, bir-birlarini himoya qiladilar.

Asardagi isboti tahlilida esa asardagi yirtqich qushlar va amaldorlar bir-biri bilan raqobatlashsa ham, oxir-oqibat oddiy xalqni talash masalasida til biriktirishadi. Ular bir-birining qing'ir ishlarini yashiradi.

Hayotda qo'llaganiomizada esa jamiyatda korrupsiya avj olgan paytda amaldorlar bir-birini fosh qilmasligi — "qo'l qo'lni yuvar" qabilida ish tutilishining yaqqol isbotidir.

4. «Ot aylanib qozig'ini topar»

Majoziy ma'noda qo'llanganda inson qayerga bormasin, nimalarga erishmasin, oxir-oqibat o'z asliyatiga, vataniga yoki o'zining asl tabiatiga qaytadi tarzida qo'llaniladi.

Asardagi isboti tahlilida yapaloqqush qanchalik o'zini kibor, oqsuyak qilib ko'rsatmasin, u baribir vayronalarni yaxshi ko'ruvchi boyo'g'li bo'lib qolaveradi. Uning "qozig'i" — xarobazorlardir.

Falsafiy tomonlama bu maqol insonning "o'zligi"dan qochib qutula olmasligini isbotlaydi.

5. «Eshak Makkaga borgani bilan hoji bo'lmas»

Majoziy ma'noda asli buzuq, tabiati yomon yoki ilmsiz inson muqaddas joylarga borsa ham yoki yuqori lavozimga o'tirsa ham, yaxshi odam bo'lib qolmaydi. Shakl o'zgarishi bilan mazmun o'zgarmaydi tarzida qo'llaniladi.

Asardagi isboti tahlilida esa Gulxaniy bu maqol orqali mansabparastlarni qattiq tanqid qiladi. Asardagi ayrim qahramonlar tashqi ko'rinishidan o'zlarini dindor yoki olim qilib ko'rsatishga urinadilar, lekin ichki dunyosi "eshak"ligicha (nodonligicha) qoladi.

Hayotda foydalanganimizda diplom olish — ilmi bo'lish degani emas; mansab kursisiga o'tirish — rahbar bo'lish degani emas. Asl mohiyat tarbiyada ekanligini isbotlaydi.





6. «Har qush o‘z uyasiga qarab uchadi»

Majoziy ma’noda bu maqol vatanparvarlik, o‘z uyini, o‘z makonini sevish hissi hamma jonzotda bor.

Asarda bu maqol kinoya (ironiya) bilan ham qo‘llanilgan. Boyo‘g‘lilar uchun "o‘z uyasi" — bu vayronalar. Ular obod joylardan qochib, xarob joylarga talpinadilar.

Ijtimoiy dalil sifatida qaraydigan bo‘lsak Gulxaniy bu yerda shunday demoqchi: Yaxshi odamlar obodlikka, ezgulikka (o‘z uyasiga) intiladi, yomon odamlar (Boyo‘g‘li tabiatlilar) esa buzg‘unchilik va jaholatga intiladi. Har kim o‘z tabiatiga mos joyni tanlaydi.

«Zarbulmasal» — o‘zbek mumtoz adabiyotidagi ilk realistik-hajviy roman(yoki qissa) xususiyatiga ega noyob asardir. U shunchaki masallar to‘plami emas, balki «qissa ichida qissa» usulida qurilgan, yagona syujet chizig‘iga ega bo‘lgan mukammal badiiy polotnodir. Gulxaniy bu asar orqali xalq og‘zaki ijodi (maqollar) va yozma adabiyot (saj’ uslubidagi nasr) o‘rtasida mustahkam «oltin ko‘prik» o‘rnatgan. Hayvon nomi tilga olinganda, kitobxon darhol uning ortidagi insoniy toifani (masalan, poraxo‘r amaldor yoki ezilgan dehqonni) tushunadi. Asarda ko‘pincha qarama-qarshi hayvonlar nomi birga qo‘llaniladi (masalan, kuchli va kuchsiz, yirtqich va o‘txo‘r). Bu ziddiyat orqali ijtimoiy tengsizlik fosh etiladi. Zoonimlar jiddiy ohangda emas, balki kulgi, masxara va piching aralash qo‘llaniladi. Bu esa asarning hajviy (satirik) ruhini kuchaytiradi.⁹ Xalqning asosiy mashg‘uloti chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgani uchun, hayvonlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar odamlarning dunyoqarashini shakllantirganini ko‘rish mumkin. Odamlar insoniy munosabatlarni ham hayvonlar xatti-harakati orqali baholashga o‘rganganliklari asar matnididan sezilib turadi. «Zarbulmasal»dagi zoonim birliklar shunchaki xalq og‘zaki ijodi namunasi emas, balki muallifning jamiyat qusurlarini fosh etish qurolidir. Zoonimlar orqali jamiyat qatlamlari ajratilgan. Masalan, kuchli yirtqichlar haqidagi tushunchalar hukmdorlar sinfini, yuk tashuvchi hayvonlar haqidagi tushunchalar esa mazlum xalqni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qahramonlar tortishuvi paytida zoonim elementlar eng kuchli dalil

⁹ Karima Nazarova«Gulxaniy "Zarbulmasal" asarining tili»mavzusida (1960-yillarda) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.





hisoblanadi. Biror fikrni tasdiqlash uchun albatta biror hayvonning xulq-atvori "qonun" sifatida keltiriladi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik, ayniqsa, hayvon nomlari ishtirok etgan maqollar (zoonimik paremiyalar) misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Zoonimlar shunchaki hayvonot olamini ifodalovchi so'zlar emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlari va "Olamning lisoniy manzarasi"ni o'zida tashuvchi madaniy kodlardir. Ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlillar shuni isbotladiki, bir xil hayvon obrazi turli madaniyatlarda turlicha, ba'zan esa butunlay qarama-qarshi ramziy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin (masalan, it, boyqush va cho'chqa obrazlari). Shu bois, zoonim komponentli maqollarni tarjima qilishda so'zma-so'z (kalkulashtirish) usulidan ko'ra, madaniy moslashuv (domestikatsiya), ekvivalent va analog topish strategiyalari eng samarali hisoblanadi. Tarjimonning asosiy vazifasi — so'z shaklini emas, balki uning zamiridagi g'oya va hissiy ta'sir kuchini saqlab qolishdir. Bu jarayon tarjimadan nafaqat lingvistik, balki chuqur lingvokulturologik va etnografik bilimlarni talab etadi. Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tahlili esa zoonimlarning badiiy adabiyotdagi o'rnini yana bir bor tasdiqladi. Asardagi hayvon obrazlari va ular ishtirokidagi maqollar shunchaki folklor namunasi bo'libgina qolmay, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, insoniy illatlar va siyosiy tuzumni fosh etishda o'tkir satirik qurol vazifasini o'tagan. "Zarbulmasal" misolida ko'rish mumkinki, xalq donishmandligi hayvonlar xatti-harakati orqali insoniy munosabatlarning eng murakkab jihatlarini ham sodda va ta'sirchan ifodalay oladi.

References:

1. Mamatov A.E.O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari.— Toshkent: Fan, 2019.
2. K. Musayev."Tarjima nazariyasi asoslari".
3. G'aybullay Salomov."Tarjima nazariyasi asoslari"va"Til va tarjima"
4. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari.
5. Mamatov A.E.O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari.— Toshkent: Fan, 2019.





6. G‘aybulla Salomov. "Tarjima nazariyasi asoslari" va "Til va tarjima"
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
8. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Muhammad Sharif Gulxaniy tomonidan turkiy tilda yozilgan.
9. Karima Nazarova «Gulxaniy "Zarbulmasal" asarining tili» mavzusida (1960-yillarda) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

